

**THE POSTCOLONIAL MEMORY MODEL IN “BY THE SEA”: AN ANALYSIS BASED ON SCHOLARS’ PERSPECTIVES***Dilafruz Saydamatova**2nd-year PhD student**Namangan State University*dilafruzsaydamatova97@gmail.com*Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: “By the Sea”, postcolonial literature, memory, nostalgia, reflective nostalgia, trauma, cultural memory.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: This article examines the postcolonial interpretation of memory and nostalgia motifs in Abdulrazak Gurnah’s novel “By the Sea”. The study explores the novel’s fragmented memory structure, the reflective nature of nostalgia, the complex relationship between trauma and recollection, and the psychological experiences of the characters in reconstructing their postcolonial identities. Theoretical foundations of the analysis include Svetlana Boym’s typology of nostalgia, Jan Assmann’s concept of cultural memory, Cathy Caruth’s trauma theory, as well as the perspectives of scholars such as Valdivieso, Brazzelli, Hand, and Farrier. The article highlights how memory and nostalgia function as central aesthetic components shaping the novel’s narrative structure and postcolonial significance.

“DENGIZ BO‘YIDA” ROMANING POSTKOLONIAL XOTIRA MODELII: OLIMLAR QARASHLARI ASOSIDA TAHLIL*Dilafruz Saydamatova**II bosqich tayanch doktoranti**Namangan davlat universiteti*dilafruzsaydamatova97@gmail.com*Namangan, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: “By the Sea”, postkolonial adabiyot, xotira, nostalgia, reflektiv nostalgia, travma, madaniy xotira.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurazzoq Gurnaning “By the Sea” (“Dengiz bo‘yida”) romanida xotira va nostalgia

motivlarining postkolonial talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida romandagi xotira strukturasi fragmentarligi, nostalgiyaning reflektiv tabiati, travma va eslash o'rtasidagi murakkab bog'liqlik hamda qahramonlarning postkolonial identitetni qayta qurish jarayonidagi ruhiy kechinmalari adabiyotshunoslar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar asosida yoritiladi. Svetlana Boymning nostalgia tasnifi, Jan Assmannning madaniy xotira konsepsiyasi, Cathy Caruthning travma nazariyasi, shuningdek Valdivieso, Brazzelli, Hand va Farrier singari olimlarning Gurna ijodiga doir qarashlari maqola tahlilining nazariy tayanchini tashkil etadi. Maqola xotira va nostalgia motivlarining romanning badiiy tuzilishi va postkolonial mazmunini shakllantirishdagi o'rini ilmiy asosda ochib beradi.

ПОСТКОЛОНИАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПАМЯТИ В РОМАНЕ “BY THE SEA”: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МНЕНИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Дилафруз Сайдаматова

Базовый докторант 2-го курса

Наманганского государственного университета

dilafuzsaydamatova97@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “By the Sea”, постколониальная литература, память, ностальгия, рефлективная ностальгия, травма, культурная память.

Аннотация: В данной статье анализируется постколониальная интерпретация мотивов памяти и ностальгии в романе Абдурраззак Гурны “By the Sea” (“У моря”). В ходе исследования рассматриваются фрагментарная структура памяти в романе, рефлективная природа ностальгии, сложное взаимодействие между травмой и воспоминанием, а также психологические переживания героев в процессе восстановления постколониальной идентичности. Теоретической основой анализа служат классификация ностальгии Светланы Бойм, концепция культурной памяти Яна Ассмана, теория травмы Кэти Карут, а также взгляды таких исследователей, как Вальдивieso, Браццелли, Хэнд и Фарриер. Статья выявляет роль мотивов памяти и ностальгии в формировании

Kirish. Asosiy qism. Jahon adabiyotshunosligida Abdurazzoq Gurna o‘zining yetuk asarlari bilan mashxur. Abdurazzoq Gurnaning oltinchi romani - “By the Sea” (“Dengiz bo‘yida”) mazkur tadqiqotimiz markaziga tortilgan bo‘lib, ilk bor 2001-yilda Buyuk Britaniyada Bloomsbury Publishing nashriyoti tomonidan, keyinroq esa AQShda The New Press tomonidan chop etilgan. Roman 245 sahifadan iborat bo‘lib, roman bir qator xalqaro adabiy mukofotlar uchun nomzod bo‘lgan: xususan, u Booker Prize ro‘yxati, Los Angeles Times Book Prize final bosqichi va bir nechta mahalliy mukofotlarda e’tirofga sazovor bo‘lgan. Ushbu tadqiqotimizda asarning inglizcha nashri asosiy matn sifatida qabul qilinadi.

Asar Gurnaning migratsiya, uysizlik va postkolonial ruhiy jarayonlar haqidagi ijodining yetuk bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Roman bugungi kungacha turli tillarga tarjima qilingan: nemis, fransuz, ispan, italyan, portugal, niderland, shved, norveg, turk va arab tillarida nashr qilingan bo‘lib, Sharqiy Afrikaning kech zamonaviy tarixiga oid muhim badiiy asar sifatida keng ilmiy jamoatchilikda o‘rganib kelinmoqda. Mazkur asar o‘zbek tiliga hozirgacha tarjima qilinmagan.

Gurna ijodiy merosining aksariyat qismi - “Memory of Departure”, “Pilgrims Way”, “Admiring Silence”, “By the Sea”, “Desertion”, “Afterlives” va so‘nggi yillarda yaratilgan “Theft” romanlari - surgun, qochoqlik, yersizlik, tarixiy jarohat va ularni eslash motivlari atrofida shakllanadi. Adabiyotshunoslar fikriga ko‘ra, Gurna qahramonlari deyarli har doim “o‘zlari bilgan dunyodan uzilgan, begona hududlarda yashashga majbur bo‘lgan, ichki va tashqi mojarolarni boshdan kechirayotgan shaxslar” bo‘lib, ular uchun xotira va nostalgia identitetni saqlab qolish hamda qayta qurishning asosiy vositasiga aylanadi.

S. Muñoz Valdivieso “The Paradise Within: Displacement, Memory and Nostalgia in Abdulrazak Gurnah’s “By the Sea” maqolasida Gurna asarlarida “ichki jannat” tushunchasi o‘tmishga oid ideal tasavvur sifatida emas, balki ko‘chirish, zo‘ravonlik va siyosiy beqarorlik fonida o‘z-o‘ziga tasalli berish va o‘zlikni himoya qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. N. Brazzelli esa Gurna romanlari, ayniqsa “By the Sea” misolida tarix va xotira “markaziy trop”ga aylanishi, syujetning mulk, meros va uyga egalik huquqi atrofida qurilishi bilan ajralib turishini ko‘rsatadi.

Bu yondashuvlarni o‘rganish natijasida shuni aytishimiz mumkinki, Gurna ijodida xotira va nostalgiya nafaqat psixologik holat, balki badiiy strukturaning o‘zak prinsipi ekanini ko‘rsatadi: hikoya qilish uslubi, kompozitsiya, ovozlarning navbatlanishi, sukut va bo‘shliqlar aynan eslash mexanizmlari bilan bog‘liq. Keyingi tadqiqotlar - masalan, “Echoes of Postcolonial Trauma in

Gurnah's Selected Novels" yoki "Displacement and Inner Conflict in Abdulrazak Gurnah's Memory of Departure and By the Sea" singari ishlar - Gurna asarlarida travma, ichki ziddiyat va eslash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni alohida ta'kidlaydi .

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, "Dengiz bo'yida" romanida xotira va nostalgia motivlari syujet qurilishining asosiy mexanizmi sifatida ishlaydi. Asar ikki hikoyachi - keksaygan qochqin Saleh Umar va akademik Latif Mahmudning navbatma-navbat so'zlashidan tashkil topgan bo'lib, ularning hikoyalarida o'tmish voqealari fragmentar, qayta-qayta qaytib keluvchi xotira lavhalari sifatida ochiladi. Goddardlar (Kevin va Sheena) "Trauma and the Dialectics of Recuperation in Abdulrazak Gurnah's By the Sea" maqolasida romanning aynan shunday strukturasi "travmadan tiklanishning dialektik modeli" sifatida talqin etadi: qarama-qarshi pozitsiyalardan so'zlaydigan ikki subyekt o'z xotiralarini taqqoslash orqali nafaqat shaxsiy adovat, balki butun tarixiy nizolarni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi . Xotiraning fragmentarliligi romanning eng muhim badiiy tamoyillaridan biri hisoblanib, Salehning "I had come to the end of things. I was trying to hide from the memory of my own name" degan iqrorida xotira va travma o'rtasidagi murakkab munosabat badiiy tarzda ochilishini guvohi bo'lamiz. Bu jumla qahramonning o'z nomidan - demakki, o'z tarixidan va o'zligidan - qochishga urinishi orqali travmaning asosiy mexanizmini ko'rsatadi: og'riqli o'tmishni unutishga bo'lgan ichki ehtiyoj aslida uni butkul inkor etish emas, balki vaqtincha bostirishga qaratilgan mudofaa shaklidir. Ammo Gurna badiiy haqiqatni o'zgartirmaydi: xotira baribir qaytadi va qochishning o'zi xotirani kuchaytiruvchi omilga aylanadi. Aynan shu jarayon Caruth tomonidan tavsiflangan "belated memory" - kechikib qaytuvchi, vaqt o'tgan sayin keskinroq seziladigan xotira fenomenining to'liq ifodasidir .

Shu tariqa, Gurna "By the Sea" romanida xotira jarayonini oddiy retrospektiv mexanizm sifatida emas, balki postkolonial subyektning o'zligini tiklash va yo'qotish o'rtasidagi murakkab ruhiy jarayon sifatida tasvirlaydi. Ikkala qahramon xotira bilan kurashadi, biroq ularning yo'li bir nuqtada tutashadi: xotira ular uchun og'riq manbai bo'lsa ham, aynan shu og'riq orqali o'zligini qayta ko'rish va anglash imkoniyati yuzaga keladi

S. Muñoz Valdivieso yuqorida tilga olingan maqolasida, Salehning Zanzibar haqidagi xotiralarini "ichki jannat" metaforasi orqali tahlil qilarkan, bu jannat aslo bir ma'noli ideal makon emasligini, unda ham iqtisodiy tengsizlik, siyosiy beqarorlik, oilaviy xiyonat kabi omillar chuqur muhrlanganini ko'rsatadi . Shunga qaramay, aynan shu ziddiyatli xotiralar uning ongida vatanga bo'lgan sog'inchni jonli saqlab turadi. Demak, bu yerda nostalgia - o'tmishni mutlaq ideal holatda tiklash emas, balki yo'qotilgan makon bilan ziddiyatli ruhiy aloqani davom ettirish shakliga aylanadi.

N. Brazzelli esa "By the Sea" romanida "har bir xotira qon chiqaradi" mazmunidagi epizodni sharhlar ekan, xotira bu asarda nafaqat taskin, balki iztirob manbai ekanini, tarix va xotira "dengiz

kabi chigallashgan jarayonlar”ni ifodalashini ta’kidlaydi . Uyning meros sifatida tortib olinishi, hujjatlar, qarz, veksel va vasiyatlar atrofidagi mojarolar xotira bilan bevosita bog‘langan: qahramonlar nafaqat mulk, balki o‘z tarixlariga egalik qilish huquqi uchun kurashadilar.

O‘zbek va mintaqaviy ilmiy makonida ham Gurna ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalar ko‘payib bormoqda. Masalan, O. Karimovning “By the Sea” romani bo‘yicha maqolasida asardagi “displacement, identity and memory” motivlari o‘zaro bog‘langan holda tahlil qilinadi; unda qahramonlarning ichki ziddiyatlari aynan surgun va qochqinlik fonida o‘tmishni eslash bilan kuchayishi ta’kidlanadi . N. Sadullayeva tomonidan Gurnaning “By the Sea” va “Paradise” romanlari tahlilida esa “bostirilgan xotira, narrativ sukut va emotsional uzoqlashuv” Gurna uslubining muhim xususiyatlaridan biri sifatida qayd etilgan¹⁵.

Bu mahalliy tadqiqotlar G‘arb adabiyotshunosligi doirasidagi xulosalar bilan uyg‘un ravishda, Gurna ijodida xotira va nostalgia motivlari nafaqat tematik, balki poetologik kategoriya ekanini yana bir bor tasdiqlaydi: eslash va hikoya qilish usullari, sukut, bo‘sh qoldirilgan joylar, epizodlarning “kechikib” ochilishi - bularning barchasi postkolonial travma va shaxsiy jarohatlarni ifodalash usuli sifatida ishlatiladi.

Tadqiqotimizning yana bir natijasi Gurna ijodida xotira va nostalgia postkolonial o‘zlikni qayta qurishning asosiy mexanizmi sifatida ishlashini aniqlashtirish deyish mumkin. Xususan, Gurna roman qahramonlari uchun eslash - nafaqat ichki taskin izlash, balki mustamlaka hukmronligi yo‘q qilgan tarixiy uzluksizlikni qayta tiklash, shaxsiy ovozni qayta topish, madaniy merosni yangidan talqin qilish vositasidir. Bu jihat Gurnani jahon adabiyotidagi postkolonial yozuvchilarning alohida guruhiga olib kiradi, chunki u xotirani nafaqat psixologik jarayon, balki madaniy, geografik va siyosiy muhokama maydoni sifatida namoyon qiladi.

“Dengiz bo‘yida” romanidagi xotira va nostalgia motivlarining alohida ahamiyatli jihati - ularning joy (place) va harakat (mobility) bilan dialektik aloqasidir. Okean obrazi bir tomondan o‘tmishning manzaralari, bolalik esdaliklari va madaniy ildizlarning timsoli, ikkinchi tomondan, surgun, ajralish va yersizlikning chegarasi sifatida tasvirlanadi. Bu geopoetik yondashuv zamonaviy adabiyotshunoslikda “oceanic memory”, “border thinking” deb ataladigan tendensiyalar bilan uyg‘un bo‘lib, Gurna romanining transmilliy adabiy fazodagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Gurna romanida xotira psixologik jarayon sifatida emas, balki postkolonial identitetni tiklashning estetik va siyosiy strategiyasi sifatida talqin qilinadi. Saleh va Latifning qarama-qarshi hikoyalari orqali avval yopilgan, tilga olinmagan yoki siyosiy sabablarga ko‘ra buzilgan tarix qayta muzokara qilinadi. Bunda eslash Caruth ta’riflagan “belated memory” - kechikib qaytuvchi, jarohat bilan kechadigan xotira - shaklida yuzaga chiqadi. Roman strukturasi fragmentarligi,

vaqt bo'yicha sakrashlar, sukut va bo'sh joylar - bularning barchasi xotira mexanizmining badiiy ifodasiga aylanadi.

Nostalgia esa asarda idealizatsiyalangan o'tmishga intilish emas, balki o'tmish bilan hozirgi o'rtasidagi ziddiyatli ruhiy aloqaning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Boymning reflektiv nostalgia konsepsiyasi bilan uyg'un tarzda, Gurna qahramonlari vatanni biryoqlama ideal tasvirda emas, balki murakkab siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy jarohatlar bilan yodga oladilar. Shunday qilib, nostalgia bu yerda shizofonik jarayon – sog'inch va tanqidiy ongning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishini ifodalaydi. Okean obrazi ham aynan shu dialektikani kuchaytiradi: bir tomondan bolalik xotiralari timsoli, ikkinchi tomondan yo'qotish, surgun va yersizlik chegarasi.

Xulosa. Tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Dengiz bo'yida" romanida xotira va nostalgia motivlari badiiy strukturaning markazida turadi va asarning har bir qatlamini belgilaydi. Xotira - shaxsiy tarixni tiklash, nostalgia esa o'tmish bilan hozirgi o'rtasidagi ruhiy munosabatni anglash vositasiga aylanadi. Bu jarayonlar esa postkolonial subyektning o'zligini qayta qurishda, migratsiya va yersizlik sharoitida o'z tarixiga egalik qilish jarayonida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Natijada, Gurna ijodida xotira va nostalgia oddiy adabiy motivlar emas, balki mustamlakachilikdan keyingi dunyoning murakkab ruhiy topografiyasini anglashga xizmat qiluvchi fundamental poetik va gnoseologik kategoriyalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bloomsbury Publishing. *By the Sea*. London, 2001
2. Booker Prize Foundation arxivlari; Los Angeles Times Book Awards ma'lumotlari.
3. International Publishing Rights Reports, 2001-2020.
4. Pujolràs-Noguer, E. "Tracing Lines in the Trauma of Displacement: Slavery in Abdulrazak Gurnah's *Paradise and Afterlives*".
5. Okungu, A. *Reading Abdulrazak Gurnah: Narrating Power and Human Rights*.
6. Muñoz Valdivieso, Sofia. "The Paradise Within: Displacement, Memory and Nostalgia in Abdulrazak Gurnah's *By the Sea*".
7. Brazzelli, Nicoletta. "Abdulrazak Gurnah's *By the Sea*: A Paradigmatic Novel on Migration, Memory and Heritage".
8. Thakur, M. K.; Sahi, N. K. "The Struggle for Reconciliation: Trauma and Memory in Abdulrazak Gurnah's *By the Sea*". *International Journal of English Literature and Social Sciences*, 9(6), 2024;
9. Goddard, Kevin; Goddard, Sheena. "Trauma and the Dialectics of Recuperation in Abdulrazak Gurnah's *By the Sea*". *Journal of Literary Studies*, 38(3), 2022.
10. Caruth, Cathy. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. Johns Hopkins University Press, 1996, pp. 4–12.

11. Muñoz Valdivieso, Sofía. “The Paradise Within: Displacement, Memory and Nostalgia in Abdulrazak Gurnah’s *By the Sea*”.- 66 p.

12. Brazzelli, Nicoletta. “Abdulrazak Gurnah’s *By the Sea*: A Paradigmatic Novel on Migration, Memory and Heritage”.